



Qudus Muhammadiy 1907-yili Toshkentda dehqon oilasida dunyoga kelgan. Shoirning “O‘quvchiga esdalik”, “She‘r va ertaklar”, “Orzu”, “Bahor keldi”, “Dunyoda eng kuchli nima?”, “Qirq o‘g‘il va qiz”, “Bizning do‘stlarimiz”, “Sen tug‘ilgan kun”, “Yangi uy”, “Mehribon do‘stlar”, “Qo‘ng‘izboy bilan Sichqonboy”, “Tugmacha”, “Tanlangan asarlar” kabi o‘ttizdan ortiq kitoblari chop etilgan.

***Bilasizmi, Botanika bog‘i yilning to‘rt faslida ham go‘zalligini yo‘qotmaydi. Bog‘ning betakror iqlimi tufayli bu yerda dunyoning besh tomoni – Markaziy Osiyo, Sharqiy Osiyo, Uzoq Sharq, Yevropa va Shimoliy Amerikaning o‘simliklar dunyosini ko‘rishingiz mumkin. Bog‘da 6000 dan ortiq o‘simlik turlari mavjud.***



## Mimoza

*Qudus Muhammadiy*

Bir o‘t ko‘rdim uyatchan,  
Bargiga qo‘ndirmas chang.  
Nomi ekan mimoza,  
Tabiati – nur, toza.

Unga sen tegar-tegmas,  
O‘sha on, o‘sha nafas  
Barg ko‘zin yumib olar,  
Qovog‘in uyib olar.

Ko'rganlar hayron qolar.  
 Mimoza nechun bunday?  
 Muncha uyatchan, bilay.  
 Yo'q, mimoza undaymas,  
 Xizmati zo'r, zabardast.  
 Bilamiz mimozani,  
 Tabiati tozani.  
 Sevmas pashsha-chivinni,  
 Kasallik tashvishini.  
 Hasharot, shum ucharni,

Yalmog'iz qon icharni –  
 Tutib oladi darrov,  
 Tekinxo'rni qilar ov.  
 Barglari bo'lib yasov,  
 Mimoza yashil posbon.  
 Bir o't ko'rdim uyatchan,  
 Bargiga qo'ndirmas chang.  
 Nomi ekan mimoza,  
 Tabiati – nur, toza.



1. She'rda mimoza o'simligi haqida nima deyilgan?
2. Sizingcha, nima uchun mimozaga "uyatchan" deb ta'rif berilyapti?
3. Mimozani xususiyatlariga ko'ra uni qaysi kasb egasiga o'xshatish mumkin?
4. Siz yana qanday ajoyib o'simliklar haqida eshitgansiz?
5. Dunyoda o'simliklar bo'lmaganida nima bo'lar edi?



**zabardast** – kuchli, qudratli  
**yasov** – safga tizilmoq



She'rni ifodali o'qing.  
She'rdagi o'xshatishlarni toping.  
Mimozani 3 so'z bilan ta'riflang.  
She'rdagi hasharot ta'rifiga mos ikkita savol tuzing.



Partadoshingizga she'r mazmunini so'zlab bering.



**Mimoza – qo'sh patsimon murakkab bargli va mayda gulli o'simlik. Mevasi pishganida, odatda, bo'laklanib ketadi. Asosan, Amerikada, 450-500 turi bor. Ko'pincha, "uyatchan" mimoza gulzorlarda o'stiriladi. Uyatchan mimozaning barglari kechasi yoki unga qo'l tegishi bilan juft-juft bo'lib yumilib, birozdan so'ng yana ochiladi.**



She'rni ifodali o'qing.